

GENDER IDENTIFIKASIYASI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

D.K.Kurbanova¹

¹ Andijon pedagogika texnikumi direktori

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.01.2025

Revised: 19.01.2025

Accepted: 20.01.2025

Mazkur maqola ta'lim jarayonlarida gender identifikasiyasi, gender tenglik tushunchasi va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni masalalarini ochib beradi. Shuningdek, gender identifikasiyasini ilmiy jihatdan asoslaydi va taxlil qiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*Gender tushunchasi,
gender identifikasiyasi,
gender tenglik, jamiyat,
ilm-fan va ta'limning
gender xususiyatlari.*

KIRISH. Gender-inson jinsining ijtimoiy-madaniy va ma'naviy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. Gender iborasi ijtimoiy fanlarda jins mavzusini o'rganishda yangicha yondashuv shakllangan pallada ya'ni 1950 yillardan boshlab shakllangan.

Bu davrgacha jins tushunchasi odamning anatomik-fiziologik xususiyatini anglatgan xolda insoniyatni erkak va ayol jinslarga ajratishnigina nazarda tutgan. Lekin odamlar o'rtasida biologik farqlardan tashqari ularning ijtimoiy vazifalari, xulqi, ruxiyati, xislatida ham muayyan tafovut mavjud edi. Tadqiqotlarda turli jins vakillari xulq-atvoridagi farq (masalan, shaxsning psixologik sifatleri, xulq shakllari, faoliyat turlari, erkak va ayollar shug'ullanadigan kasblar) biologik asosdan ko'ra ko'proq ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan belgilanishi aniqlangan.

Gender identifikasiyasi – bu muayyan jinsga mansub shaxsga xos xulq atvor shakllari. Asrlar davomida shakllangan va insonning faoliyat yo'nalishini belgilab beradigan ijtimoiy

me'yorlar turli jins vakillari o'rtasidagi o'zro munosabatni izga solgan xolda jamiyat turmushini yengillashtiradi.

Yoshlar ma'naviyati va tarbiyasini shakllantirish tamoyillarining yangilanishi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lgan serqirra jarayon. U juda keng ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, jamiyat mafkurasi, ma'naviy rivojlanishi, kelajagi, yoshlar tarbiyasi va ta'lim tizmidagi jarayonlar va insonlarning ijtimoiy turmush tarzida namoyon bo'ladi.

Bugungi zamonaviy ta'limning rivojlanishida, qadriyatlar va milliy o'zlikni takomillashtirish masalalari, hayotimizda urf-odatlarimiz hamda an'analarimizning ahamiyati, undagi muammolar va ularni ilmiy xal qilish muammolari kelib chiqmoqda. Bu jarayonlarda yoshlarning ongiga milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarni singdirib tarbiyalashda gender omillari ham muxim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ham 20-asr oxirlariga kelib, gender farqlar va o'xshashliklar, gender tenglik kabi jarayonlarni xisobga olish haqidagi fikrlar yuzaga kela boshladi. 2001 yildan boshlab omma o'rtasida, ta'lim muassasalarida gender tadqiqotlarning ma'lum bir jixatlarini yorituvchi ma'ruza va treninglar o'tkazila boshladi. Ayniqsa, jinslar o'rtasidagi farqlar asosida gender tenglikni targ'ib qiluvchi, xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi ma'ruzalar soni va sifati oshdi.

Ta'lim, ilm-fan, sport hamda tibbiyot sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirishning asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Bugungi globallashuv va axborot tezligi davrida yoshlar ongiga hamda tarbiyasiga raxna soluvchi turli tahdidlar, ijtimoiy hayotimizga zid bo'lgan milliy, etnik va tarixiy o'zligimizdan ajratishga qaratilgan illatlar tobora avj olib bormoqda. Ayniqsa, "ommaviy madaniyat", "g'arblashish", unga ko'r-ko'rona ergashish, gender tenglikni noto'g'ri talqin qilish kabi muammolar ortib bormoqda. Ushbu jarayonda yoshlarni qalbi va ongini asrash, ularni turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarini oldini olish, ularni milliy an'analarimizga xos umumbashariy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash bugungi kunimizning dolzarb vazifasidir. Buning uchun ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash "Bir ziyoli-bir maxallaga ma'naviy xomiy!" tamoyili asosida ish tashkil etish faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengash 46-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan

ishlarni qat'iy davom ettiramiz", deb ta'kidladi. Buni ta'lim sohasidagi olib borilayotgan ishlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishlarida, siyosiy jarayonlarda, ta'limning keyingi yuqori bosqichlarida taxsilni davom ettirishda xotin-qizlarning imkoniyatlari ortib bormoqda.

Birgina oliy ta'lim tashkilotlari misolida gender identifikasiyani solishtirsak, 2010-2011 yillarda taxsil olayotgan jami ayollar 36% ni, erkaklar 64 %ni tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, ayollarning ulushi 48,7% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Yoki ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan ayollar foizi besh yil avval atiga 19% ni tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda 37% ni tashkil qiladi.

Gender identifikasiyasi xususiyatlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri asosan quyidagi metodlar orqali o'zlashtiriladi

1. Pedagogik kuzatuv metodi

2. Suhbat metodi

. Gender ta'limi va gender identifikasiyasini talabalarga etkazish bo'yicha olib boriladigan ta'limiy jarayonlar gender identifikasiyasining pedagogik mazmun-mohiyatini belgilovchi ma'naviy-ahloqiy, siyosiy, huquqiy va diniy tushunchalarning salohiyatini oshirish, talabalarining o'zaro munosabatlar amaliyligiga yo'naltirilgan zamonaviy xamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'lsa, uning ma'naviy –ahloqiy jarayonlarini shakllantirish talabalarni o'zini o'zi anglash, simpatiya, soglom turmush madaniyatini shakllantirish, gender munosabatlarla faollik ko'rsatish va nizolarni konstruktiv bartaraf etishga yo'llash, gender identifikasiyasini yoshlar ma'naviy ahloqiy tarbiyasini yuksaltirishdagi tutgan o'rnini belgilashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender identifikasiyasi vositasida yoshlarni ma'naviy-ahloqiy jixatdan tarbiyalashda ta'lim jaryoni foydali bilim, ko'nikma va xis tuyg'ularni hamda qadriyatlar tizimini yangi avlodga etkazish, gender madaniyati va xulq atvorini o'rgatish, o'z-o'zini rivojlantiradigan, o'zini himoya va namoyon qiladigan shaxs bo'lib etishishlarini ta'minlash, o'g'il va qiz bolalarga "sharqona gender" xususiyatlarini singdirish, yoshlarni umumiy hayotga qo'shilishi bilan bog'liq bo'lgan jixatlarni olib kirish, ularning ikki jins sifatida alohida indivudial shaxsiy fazilatlarini muvaffaqiyatli shakllantirish, hayotdagi ijobiy-ijtimoiy rollarni o'zlashtirish vazifalari belgilanadi.

Yoshlarda o'zaro xurmat, izzat, tolerantlik, o'zaro yordam, do'stona munosabatlar, vatanparvarlik, sadoqat, mexr- shafqat kabi xususiyatlarini barpo etish, ta'lim jarayonlarida o'g'il va qiz bolalarning mehnat ta'limi va tarbiyasini birga olib borish, ularning kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirish muxim vazifalarimizdandir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent 2021
2. S. Bern “Gender psixologiyasi” Sank-Peterburg 2002
3. L. Bojovich “Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi” Moskva 2000
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengash 46-sessiyasidagi nutqi
5. R. Ubaydullayeva “O‘zbekiston; ayol, oila va jamiyat” 2006
6. “2022-2026n yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Prezident Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi sayti <https://adliya.uz>.

